

**ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION**

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/oje>

**THE SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF MODELING THE LANGUAGE ENVIRONMENT IN ONLINE EDUCATION****Totikhan B. Orinboyeva**

Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: online, students, lesson, computer, practice, English, class, education, traditional, remote, technology.

Received: 08.10.22

Accepted: 10.10.22

Published: 12.10.22

Abstract: This article presents ideas on how to eliminate the shortage of textbooks, electronic textbooks and manuals for correspondence students. Studies conducted by scientists show that the results of distance learning are not inferior to the results of traditional forms of education. A distance learning student learns most of the learning material on their own. This improves memory and comprehension of the topics covered and helps to strengthen the student's skills by immediately applying the new words they have learned. The main basis of the above opinions and considerations is reflected in this article.

ONLAYN TA'LIMDA TIL SOHIBI MUHITINI MODELLASHTIRISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK ZARURIYATI

To‘tixon B. O‘rinboyeva

O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: online, o‘quvchilar, dars, kompyuter, amaliyot, ingliz tili, sinf, ta’lim, an’anaviy, masofaviy, texnologiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada masofaviy ta’lim olayotgan o‘quvchilarga darsliklar, elektron va o‘quv darsliklar, qo‘llanmalar yetishmasligi kabi kamchiliklarni bartaraf etish haqida tushinchalar keltirilgan. Ta’limning yuqori natijalari erishish tadqiqotlarga qaraganda olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy o‘qitish natijalari an’anaviy ta’lim shakllarining natijalaridan qolishmaydi. Masofaviy o‘qiyotgan o‘quvchi ko‘pgina o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘rganadi. Bu o‘tilgan mavzularni yodlash va tushunishni yaxshilaydi va darhol yangi o‘zlashtirgan yangi so‘zlarni amalda qo‘llash orqali o‘quvchining qobiliyatini

mustahkamlashga yordam beradi. Yuqorida ta'kidlangan fikr va muloxazalarning asosiy negizi mazkur maqolada o'z aksini topgan.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ МОДЕЛИРОВАНИЯ ЯЗЫКОВОЙ СРЕДЫ В ОНЛАЙН-ОБРАЗОВАНИИ

Тотихан Б. Оринбоева

Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: онлайн, студенты, урок, компьютер, практика, английский язык, класс, обучение, традиционное, дистанционное, технология.

Аннотация: В данной статье представлены идеи, как ликвидировать нехватку учебников, электронных учебников и пособий для заочников. Исследования, проведенные учеными, показывают, что результаты дистанционного обучения не уступают результатам традиционных форм обучения. Студент дистанционного обучения изучает большую часть учебного материала самостоятельно. Это улучшает запоминание и понимание затронутых тем и помогает укрепить навыки учащегося, немедленно применяя новые слова, которые они выучили. Основная основа изложенных выше мнений и соображений отражена в данной статье.

KIRISH

Ta'lismizda o'quv jarayonini yangidan isloq qilish, yangi axborot texnologiyalariga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy ta'lismizni joriy qilish maqsadga muvofiqli. O'tgan asrning 90-yillari boshlarida Internetning keng ommalashishi, ayniqsa, WWW (World Wide Web — Butun dunyo o'rgimchaklari to'ri) tizimining joriy etilishi butun dunyo ta'lismiga yangi «Masofaviy ta'lism» yo'nalishini olib kirdi.

ASOSIY QISM

Masofaviy ta'lism (MT) -bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalari Internet, elektron pochta, video konferensiya, audio, video ma'lumotlar va multimedia o'quv qo'llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o'qitish, o'rgatish usulidir. Masofaviy ta'limda o'quvchidan doimiy faoliyat interaktiv o'qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qobiliyatini sifat xususiyatlarini oshiradi.

Masofali o'qitishda o'qituvchi va ta'lism oluvchilar bir-biridan ancha uzoqda joylashgan holda ishlaydi. Lekin ular maxsus usullar yordamida tashkil etilgan o'quv kurslari, nazorat formalari, elektron pochta yordamidagi kommunikatsiya usullari va boshqa Internet texnologiyalari yordamida doimiy o'zaro aloqada bo'lishadi. Internet-texnologiyalar asosida masofali talim, bu professional talimning zamonaviy universal shakli bo'lib, u o'rganuvchilarining individual so'rovlariga va ularning

mutaxassisliklariga moljallangan. Masofaviy o‘qitish barcha xohlovchilarga o‘zlarining individual xususiyatlariga muvofiq professional darajalarini oshirish imkoniyatini beradi. O‘qitishning bunday usulida tinglovchi o‘quv-metodik materiallarni aniq bir vaqtarda mustaqil tarzda, interaktiv rejimda o‘zlashtiradi, test sinovlaridan o‘tadi, o‘qituvchi rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va «virtual» o‘quv guruhidagi boshqa tinglovchilar bilan o‘zaro aloqa qiladi.

Masofaviy o‘qitishning quyidagi afzalliklari ajralib turadi:

- tinglovchilar sonini oshishi;
- fan sohalaridagi ilg‘or o‘qituvchilar, olimlar va ekspertlaming ma’ruza ishlariga jalg etilishi;
- turli davlatlardagi tinglovchilar va o‘qituvchilarning birlashuvi;
- o‘quv jarayonining faol o‘qitish usullari va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘yilagan holda tashkil etilishi;
- tinglovchilaming bevosita kommunikatsiya yangiliklarini o‘zlashtirishi.

Masofaviy ta’lim texnologiyasi o‘tgan asrning boshlaridan alohida etibor berib kelinadi. Butun dunyoda noan’anaviy ta’lim shakllarni qo‘yilagan oliy o‘quv yurtlari 1900-1960-yillarda 79 ta, 1960-1970-yillarda 70 ta, 1970-1980-yillarda 187 ta, 1980-1995-yillarda 700 tani tashkil etgan. Internet ma’lumotlaridan bu ko‘rsatkich 1995-yildan hozirgi kungacha 1500 tadan oshib ketganini ko‘rish mumkin. Chet el ekspertlarining fikricha, 2025-yilga borib an’anaviy universitetlar o‘rnini virtual universitetlar egallashi mumkin.

Masofaviy ta’limni qo‘llashning bir qator ustunlik va qulaylik tomonlari mavjud, jumladan:

- ta’lm vaqtı ixtiyoriy, o‘quvchiga istagan vaqtida o‘qishi, o‘rganishi mumkin;
- mashg‘ulotlarni auditoriyada o‘tish shart emas;
- o‘quvchilarga mustaqil shug‘ullanishni o‘rgatadi;
- o‘qituvchilardan yuqori tayyorgarlikni talab qiladi;
- o‘quvchilar amaliy va sifatli bilim olishlari mumkin;
- o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi;
- o‘quvchilarda texnik qurilmalar bilan ishlash, kompyuter, Internet, elektron pochta tizimlaridan foydalanish ko‘nikmasi rivojlanadi;
- ta’lim arzonga tushadi. Ayniqsa, kam ta’minlangan oilalardagi iqtidorli yoshlarning bilim olishiga yangi sharoit paydo bo‘ladi;
 - agar ta’lim olishga vaqt kam bo‘lsa yoki talim muassasasi yashash joyidan uzoqda bo‘lsa, kishi o‘zi uchun qulay vaqtda ishdan ajralmagan holda ta’lim olishi mumkin;
 - ta’lim olish chegara tanlamaydi, ya’ni o‘quvchilar boshqa joylarda viloyatda turib ham bilim olishi mumkin.

Shu bilan birga kelajak uchun muammo bo‘lмаган kamchiliklari ham mavjud:

- foydalanishda zarur kompyuter va texnika qurilmalari albatta mavjud bo‘lishi;

- kerakli texnologiyalardan foydalanishda yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lishi;
- texnik ko‘rsatkichlarga tobe bo‘lishi kabilardir¹.

Masofaviy ta’lim kurslari katta yoshdagilar, o‘z mutaxassisligini yoki malakasini oshirmoqchi bo‘lganlar, o‘qish uchun vaqt chegaralanganlar yoki salomatligi bo‘yicha cheklangan kishilar uchun eng qulay o‘qish shakli hisoblanadi. Bugungi kunda Masofaviy ta’lim (e-Leaming) kurslaridan dunyoda 100 mln. dan ortiq tinglovchilar foydalanadilar.

Masofaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘qitishning tashkiliy shakllariga *elektron darsliklar, seminarlar, forumlar, konsultatsiyalar* va boshqalar kiradi.

Elektron darsliklar tegishli server qismlarga joylashtiriladi yoki kompakt disklarda joylashgan bo‘ladi. Elektron o‘quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo‘sishimcha ma’lumotlar bilan ta’minalashga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘proq chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratilishi maqsadga muvofiq. O‘quv adabiyotlarining mazmuni bilim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlami bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta’lim olish, yangi bilimlami o‘quv adabiyotlardan izlab topish ko‘nikmalarini hosil qilishni ta’minalashi kerak.

Elektorn darsliklarda ovoz, animatsiya va grafik tasvirlar ham qo‘llanilishi mumkin. Tinglovchi har qanday materialning ixtiyoriy sahifasini chop etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Elektorn darsliklarda ma’ruzalarda turli didaktik materiallar, o‘zini o‘zi nazorat qilish uchun testlar va savollar, tayyorlanganlik darajasiga muvofiq turlicha murakkablikdagi topshiriqlar taqdim qilinishi shart. Amaliyotda ko‘rsatishicha, ma’ruza materiali muvofiq tarzda tarkiblashtirilgan bo‘lishi lozim.

Elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlaming eng optimal hajmi 2-3 ekranli axborotdir. Bundan, kursda yoki elektron darslikda ko‘rib chiqiladigan tayanch ma’ruzalar shu o‘lchamda bo‘lishi talab etiladi. Agar nisbatan katta hajmli matnni joylashtirmoqchi bo‘lsak, uni biror-bir usul bilan mos bo‘laklarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Seminarlar. Seminarda o‘quv dasturi mavzusi o‘quvchilar guruhi tomonidan o‘qituvchi rahbarligida muhokama qilinadi. U amaliy mashg‘ulotning bir ko‘rinishidir².

Seminar leksiya bilan bir qatorda o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy formalaridan biri bo‘lib, u uchta:

o‘zlashtirish,

¹ Hamdamov., N.Taylaqulov, U.Begimqulov, J.Sayfiyev Elektron universitet elektron vazirlik masofaviy ta’lim texnologiyalari o’zbekiston milliy ensiklopediyasi Toshkent 2011 yil.

² M.Aripov, B. Begalov, U. Begimqulov, M.Mamarajabov Axborot texnologiyalari o‘quv qo’llanma. Noshir. Toshkent 2009 yil.

tarbiyalash

nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Masofaviy ta’limda seminar funksiyalarini amalga oshirish uchun video va telekonferensiysi kompyuter texnologiyalar qo’llaniladi. Bunda ishtirokchilar bir-birlarini ko‘rmasalarda, bemalol mantli axborot almashishlari mumkin bo‘ladi. Shuningdek, axborot va telekommunikatsion texnologiya vositalari yordamida video konferensiya va kabel studiyalari orqali tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda bevosita ishtirok etishlari mumkin;

- chat seminari. Seminarlar ko‘pincha chat ko‘rinishida o‘tkaziladi, lekin bu texnologiyaning qo’llanilishi ayrim cheklanishlarni keltirib chiqaradi. Chat seminarining davomiyligi bir soatdan ortiq bo‘lman va qatnashchilar soni 10 kishidan kam bo‘lgan holda (xabar ekranga chiqariladi, agar ishtirokchilar ko‘payib ketsa, ma’noni anglash qiyin bo‘ladi) o‘tkaziladi;

- video konferensiylar. Video konferensiylar kompyuter, telefon aloqasi orqali amalga oshiriladi. Bunda bir shahardagi o‘quvchilar boshqa bir shahardagi o‘qituvchi yoki o‘quvchilar bilan jonli muloqot qilishi mumkin. Albatta, buning uchun maxsus video va multimedia qurilmalari bilan birga, ulaming kompyuterda maxsus dasturiy ta’minoti ham zarur bo‘ladi.

Video konferensiylar, odatda, oldindan rejalshtiriladi va belgilangan vaqtida muloqot o‘tkaziladi.

- maxsus kabel studiyalari orqali. Maxsus kabel studiyalari orqali ta’lim olish jarayoni, xuddi kabel televidenyesi kabi tashkil etilgan bo‘ladi. O‘qituvchi biror joyda turib televizor orqali boshqa joydagi bilim oluvchilarga bilim berishi, o‘rgatishi mumkin. Internet takomillashmasdan oldin bir qator talim muassasalarida shu usuldan keng foydalanilgan;

Konsultatsiyalar (maslahatlar). Maslahatlar o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishining bir turi hisoblanib, u ta’lim oluvchilarning o‘z ustida ishlashini boshqarish shaklini va o‘quv materiallari asosida ularga yordam berishni qamrab oladi. Bunda o‘qituvchilar va konsultatsiya oluvchi tinlovchilar o‘rtasida maqsadli yo‘naltirilgan axborotlar almashinuvni amalga oshiriladi.

Nazorat tizimi. Ta’lim jarayonidagi nazorat o‘quvchining nazariy va amaliy o‘quv materiallarini o‘zlashtirish natijalarini va o‘zlashtirish jarayonini o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayonida masofaviy o‘qitish texnologiyalari qo’llanilgan holda o‘quvchilarning bilimlarini baholash va ularning bilish hamda idrok etish xususiyatlarini aniqlash alohida mazmun kasb etadi. Shunda bilimlar sifati ustidan xolis va ko‘p mezonli nazorat shaklining roli oshadi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilmlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini

baholash o‘qituvchidan yuksak mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlovchi pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmogda.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo’llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsha o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zлari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zлari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

O‘qitish jarayoni birinchi o‘rinda masofaviy ta’limda o‘zining tashkil etilishining interaktivligi, ya’ni o‘quvchi va o‘qituvchining aloqalari, o‘quvchilarning o‘zaro aloqalari bilan, bilimlarning aniq bir sohasiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Demak, masofaviy o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro aloqasi masofaviy ajralgan holda o‘qitish vositalari to‘plami-jumladan, elektron ma’ruza, darslik yoki kurslar bo‘ladi. Mustaqil o‘qish tizimida o‘qituvchi bo‘lmaydi, u o‘quvchining mustaqil faoliyatidir. Masofaviy o‘qitishning mustaqil o‘qish tizimidan farqi ana shunda. Mustaqil o‘qish videokassetadagi avtonom kurslar, televizion va radiodagi kurslar, kompyuter dasturlari va kompakt disklardagi dasturlar bilan ishlashdir. Shu qatorga o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi aloqa ko‘rilmaydigan tarmoqdagi dasturlar asosida o‘qish jarayoni ham kiradi. Bu holda «masofaviy» atamasini qo’llash noo‘rin, chunki, bu yerda ta’lim oluvchilarning o‘rgatuvchi dasturlar, turli tashuvchilardagi axborot ta’lim resurslari bilan mustaqil ishlash haqida gap boryapti. Ta’lim oluvchilar kitob, videokasseta va tarmoqdagi kurs bilan mustaqil ishlashi mumkin. Masofaviylik tushunchasi esa o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilar masofa bilangina ajratilib turgan holdagina qo’llaniladi. Masofaviy shakl – bu o‘qitishning sirtqi shaklining analogi emas. Bu yerda sirtqi o‘qish shaklidan farqli ravishda, ular maxsus Internet texnologiyalari vositalari yordamida bog‘lanadilar. Masofaviy o‘qitish bu kunduzgi, sirtqi, eksternat shakllar qatoridagi o‘qitishning yangi shaklidir va unga aynan o‘qitishning mustaqil tizimi sifatida qarash lozim. Insonni o‘qitish va tarbiyalashda qanday shakldan foydalanimas, u pedagogika, didaktika va xususiy uslubiyotning qonuniyatlariga mos kelishi va ularni o‘zida mujassamlashtirishi kerak. Masofaviy ta’lim yoki masofaviy o‘qitish asosiy yoki qo‘srimcha bo‘lishi mumkin. Keyingi holda biz masofaviy pedagogik faoliyat haqida gapishimiz

mumkin. (Masofaviy seminarlar, viqtorinalar, anjumanlar, olimpiadalar, aspirantlar bilan ishlashni tashkil etish.)

Agar o‘qitishning masofaviy shaklini mustaqil tizim sifatida qaraladigan bo‘lsa, u holda axborotning elektron manbalarini, ya’ni virtual kutubxonalar, turli malaka oshirishlar, maslahat xizmatlari, multmediali elektron darsliklar, uslubiy birlashmalarni o‘z ichiga olgan yagona axborot – ta’limiy muhitni yaratish zarurligi haqidagi mantiqiy xulosa kelib chiqadi. Demak, gap masofaviy o‘qitish haqida borar ekan, biz o‘qituvchilar, darslik (axborot-uslubiy ta’milot) mavjud bo‘lgan tizimni ko‘rib chiqamiz.

XULOSA

Hozirgi zamonda masofaviy o‘qitish tushunchasi bizda va chet elda tobora ko‘proq tan olinayotganini ta’kidlash kerak. Bundan esa, o‘z navbatida masofaviy o‘qitishning didaktik ta’milotini – elektron kurslar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini, o‘qitish tizimining axborot ta’milotini, pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning uslub va shakllarini, pedagog-koordinatorlar va tyutorlar tayyorlash zarurati tug‘iladi. Ma’ruza matnlarini, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini elektron shaklga almashtirish-muammolarni hal qilmaydi, aksincha, masofaviy o‘qitish jarayonini qiyinlashtiradi, xolos. Negaki, bunda o‘quv materialini etkazib berish shakligina o‘zgaradi. Tizimning boshqa barcha tashkil etuvchilari sirtqi o‘qitishdagi kabi bajarilaveradi. Bundan kelib chiqadiki, nazariy ishlash, tajriba bilan tekshirishlar, jiddiy ilmiy-tadqiqot ishlari talab qilinadi. Afsuski, biz uchun Internetda ko‘rayotganimiz, kompakt diskarning ko‘pchiligi pedagogikaning elementar talablariga javob bermaydi. Masofaviy ta’lim uchun ishlab chiqarilgan pedagogik mahsulotlar elementar didaktik talablarga javob bermaydi. Elektron kurslar, elektron darsliklarga xuddi dastur va darsliklar ishlanishiga qaraganday jiddiy qarash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hamdamov. R., Taylaqulov N., Begimqulov U., Sayfiyev J., Elektron universitet elektron vazirlik masofaviy ta’lim texnologiyalari o‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Toshkent 2011 yil.
2. Jalolov J. J. Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., O‘qituvchi, 1996.
3. Jalolov, J.J. Makhkamova, G.T. Ashurov Sh. S. “English Language teaching methodology”, Tashkent, 2015
4. Jalalov J.J. Til tajribasi va o‘quv mashqlari mutanosibligi filologiya masalalari. – T., 2003.
5. Jalalov J.J. Chet til o‘qitish zamonaviy metodikasiga bir nazar Aktualnye problemy filologii: Materialy regionalnoy nauchnoy konferensii. Namangan.: NGU, 2009.
6. Малькова Е. В. Формирование межкультурной компетенции в процессе работы над текстами для чтения (немецкий язык в неязыковом вузе, факультет с расширенной сеткой часов): Дис...канд. пед. наук. – М.: МГЛУ, 2000.

7. Маматов А.Э. Специфика межкультурной невербальной коммуникативной замонавий тишинослик ва хорижий тиллар ўқитишнинг долзарб масалалари: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: ЎзДЖТУ, 2008.
8. Махкамова Г.Т. Межкультурные измерения ценностных ориентаций, языка, дискурса и поведения. – Т., «Tafakkur qanoti», 2012
9. Махкамова Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка. – Т.: Фан, 2010
10. Мильруд Р.П. Компетентность в изучении языка Иностранные языки в школе. - М., 2004.
11. Xodjayev B.X, umumiyyet pedagogika nazariyasi va amaliyoti darslik sano standart nashriyoti. Toshkent 2017 yil.